

TASVIRIY SAN'ATDA QALAMTASVIR TEXNIKASI. QALAM YORDAMIDA AYOL PORTRETINI ISHLASH

Hasanboyeva Ozoda Haydarali qizi

Namangan Davlat Universiteti "San'atshunoslik" fakulteti

Amaliy san'at va rang tasvir kafedrası, II- bosqich talabasi

Ozodahasanboyeva2106@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san'atda qalam tasvir texnikasi va qalam tasvirda ayol portret ishlashning qonun qoidasi portret ishlashning usullari haqida, uning ketma-ketligi talabalarga akademik qalam tasvirda portret ishlashning texnikasi nima ekanini dars davomida tushuntirish keng yoritib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** Qalamtasvir qonun qoidalari, realizim, san'at, pedagog, perspektiva, rassom, akademik, yorug'-soya qonuniyatlari, qalam turlari, ijodiy faoliyat, kuzatish ko'nikmasi, qalamtasvir texnologiyasi.*

Kirish: Tasviriy san'at-(fransuzcha: les beaux arts, lotincha: bonae artes-bu san'atning ayrim turlari: tasviriy san'at va memorchilik, musiqa, she'riyat, teatr va raqs. "Bonae artes" atamasi Yevropada kamida XV asrning oxiridan beri mavjuddir. Ilk marta XVIII asrning ikkinchi yarmida Charlz Batyo tomonidan estetik nuqtai nazardan san'at va hunarmandchilikdan farqli ravishda, go'zallikni yaratishga qaratilgan san'at janrlari va turlariga tayinlangan. An'anaga ko'ra, tasviriy san'at mexanik san'at (artes mechanicae) deb ataladigan san'at qarashdir.

Fransiyada qirol Lyudovik XIX davrida, 1648-yilda cardinal Mazarin sa'y-harakatlari bilan Qirollik rassomlik va haykaltaroshlik akademiyasi tashkil etilgan 1671-yilda Fransiya moliya vazirii Jan-Batist Kolber va arxitektor Fransua Blondel Qirollik arxitektura akademiyasini tashkil etishd. 1863-yilda Napoleon III unga davlatdan mustaqillik berdi va u boshqa akademiyalar bilan birlasjib, Tasviriy san'at

maktabini tashkil qildi. Rossiyada G'arbiy Evropa akademik an'alariga ko'ra, rasmning "yuqori janrlari" (tarixiy va portret) "tasviriy san'at" deb ham atalgan. Qolgan janrlar "past" deb e'lon qilindi. Akademik kanonda mustahkamlangan "tasviriy san'at" triadasi shunday shakllandi: rasm, haykaltaroshlik va arxitektura.

Natija tahlili: Rasm chizish texnikasi haqida gapirilganda, tasvir vositalari (chiziq, shtrix), materiallar qalam, ko'mir, qog'oz kiradi. Qalamtasvir tasviriy san'atning barcha turlarining asosi hisoblanadi. Talabalarda qalamtasvirda ayol portretini ishlashda uning texnik qonun qoidalari orqali ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Insof qiyofasini akademik qalamtasvir usulida tasvirlashda metodik izchillikda rioya qilish. 2. Badiiy talimda qalamchizmalarining ahamiyati. 3. Xonaki rasmlar va ularning bajarish usullari. 4. Kombinatsiyalashgan (dastlab naturadan, keyinchalik xotira bo'yicha) xomaki rasmlar chizish. 5. Kompleks xomaki rasmlar (barcha usullarni qo'llagan holda). 6. Inson qomatining umumiy holatini aniqlash. Inson skeleti

Tasviriy san'atda inson qiyofasini tasvirlash qadimdan rassomlarni o'ziga jalb qilib kelgan. Tabiatda inson eng mukammal va serqirra ob'ekt hisoblanadi. Shuning uchun ham barcha badiyo'quv dargohlarida ham inson qiyofasi, uning portretini tasvirlashga ko'p vaqt ajratiladi. Tirik modelni (yalang'och model tasvirini) chizish qiyin vazifa, uni bajarish uchun rassomdan doimiy mashg'ulotlar davomida egallangan malaka talab etiladi. Tirik modelni chizish qiyinligi sababi shundaki u doimiy bir hilda qimirlamasdan o'tira olmaydi, ya'ni chizish davomida bir necha bor gavda holatini o'zgartiradi. Boshqa tomondan tirik modelda kuzatiladigan suyaklar va mushaklarning yaqqol ajralib turishi, ularning tuzilishi, nisbati, vazifasi va holatini o'zgartirganda, rassom gavda tasavvuri va xotirasiga asoslanib chizishni davom ettirishi kerak. Bunday ish uslubi juda ham muhim bo'lib, qalamlar va eskizlar chizishda uning ahamiyati kattadir.

Turgan holatdagi model rasmini chizish tamoyillari ochib berish ancha oson kechadi. Tasviriy san'at qonun qoidalaridan bizga ma'lumki, tabiatdagi barcha

shakllar geometric jismlar sirtlariga o'xshash shakllar tarkibiga asoslanadi sguning uchun ham ushbu holat misolida Dyurer tomonidan geometrik shakllarga asoslangan rasmni misol keltirishimiz mumkin. Ko'pincha yosh rassomlar tomonidan ishlangan tik holatdagi yiqilayotgan ko'rinishni kasb etadi. Buning asosiy sababi markaziy og'irlik chizma bo'ylab tushirilgan vertikal tasvirlanayotgan inson oyoqlariga yoki tana og'irligi tushayotgan oyoqqa tog'ri kelmaydi. Rassom tananing asosiy qismlarini bir-biriga nisbatan qanday holatda joylashgan va u qay darajada egilgan, bosh va qo'llarning burulganligiga bog'liq. Model harakati rasmda tog'ri ifodalanishi uchun esa o'quvchi uning harakatini va joylashuvini tug'ri tahlil qilishi muhimdir.

Xulosa: Rassom modelni o'rganadi va ko'rish nuqtasini tanlaydi. Rassom tasvir vositalarini tayyorlab ishga kirishadi. Model berilgan formatdagi qog'ozga tog'ri joylashishi uchun, avvalambor modelning eng yuqori eng pastki nuqtalarini aniqlashi kerak. Rasm ishlash jarayonida tasvir qog'ozning markaziga joylashishi kerak. Rasm bir ko'rish nuqtasida chizish katta ahamyatga ega, ammo jismning har tomonini bilish va kuzatish kerak. rassom odamlarda kuzatish, ishiga e'tibor ishiga ma'suliyat kuchli rivojlangan bo'ladi. Buyuk haykaltarosh Mikelandjelo qalamtasvirda (rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilikda) "har qanday ilmning ildizi va negizini ko'rgan". "Qalamtasvir doimo bizga yo'l ko'rsatib turuvchi qutb va kompas bo'lib, turli bo'yoqlar okeanida cho'kayotganlarga najot berish omilidir, - deya ta'kidlagan Sharl Lebren. Engr o'z ustaxonasining eshiklariga quyidagi so'zlarni yozgan - "Bu yerga kelgan shogirdlarga qalamtasvirni o'rgataman, ketayotganda esa, ular rangtasvir ustasi bo'lib yetishadi". "Shunday narsa mavjudki, u hamma sanat turlarining asosi hisoblanadi, bu — qalamtasvir. Kimki qalamtasvir sanatini mukammal egallasa, u rangtasvirni ham, xaykaltaroshlikni ham o'zlashtira oladi," — deb aytgan Karachchi. "Har qanday shaklni ajoyib, nafis qiluvchi ranglar emas, balki aniq chizilgan qalamtasvirdir" — degan Titsian. U qarigan chog'larida ham, ko'mir yoki mel bilan nimalarnidir tasvirlamagan kuni bo'lmagan. "Qalamtasvirga asoslanmagan rangtasvir, sanat emas, balki rangli dog'larning tartibsiz yig'indisidir", — deya doim takrorlagan V.Ye. Makovskiy. "Qalamtasvirni

puxta bilmagan, ijod ham qila olmaydi", — deb ta'lim bergan P.P. Chistyakov. I.Ye. Repin kunora 2-3 soat qalamtasvir bilan shug'ullangan va uni rangtasvirni asosi deb hisoblagan. A.M. Vasnesov, P.P. Chistyakovning ta'lim berish tizimini yodga olib, "uning sevimli mashg'uloti qalamtasvir" edi, - deb eslaydi. Ashbening Myunxendagi rassom-pedagog maktabida hattoki san'at Akademiyasini tamomlaganlar ham ta'lim olar, ta'lim berish faqat qalamtasvir bo'yicha (shaklning konstruktiv tuzilishi, tus-soya, yorug' munosabatlar aks etgan tasvir, grizayl), uzoq vaqt o'tkazilgan, shuning natijasidagina shaklni konstruktiv qurish va tus munosabatlarini puxta egallab, so'ng ranglar bilan tasvirlashga o'tilgan.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Asqarovich, RB (2023). CHUST MADANIY MOROS OBYEKTLARIDA TURIZM ORGANATINING O'RNI. Ilg'or ilmiy tadqiqotlar jurnali (ISSN: 0976-9595), 3 (1).
2. Ruzinov, B. (2022). INTERDISCIPLINARY LINKS IN RESEARCH ON CULTURAL HERITAGE SITES AND ITS IMPACT ON THE YOUNGER GENERATION. Science and Innovation, 1(3), 167-172.
3. Рўзинов, Б. А., Нуриддинов, Б. Х., & Умаров, Х. (2021). ФАРФОНА ВОДИЙСИ АМАЛИЙ САНЪАТИНИНГ ТАЪЛИМ ТАРБИЯДАГИ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 2(3), 117-123.
4. Рўзинов, Б. А., Нуриддинов, Б. Х., & Каримбоев, Х. Қ. Ў. (2021). МОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ОБЪЕКТЛАРИ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАРНИНГ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРИМИЗГА БЎЛГАН МЕХРИНИ УЙЎТИШ. Academic research in educational sciences, 2(3), 99-108.
5. Ruzinov, B. A. (2023). TASVIRIY SAN'AT RIVOJLANISH TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATLI JIHATLARINI O'RGANISH VA TAXLIL QILISH. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(19), 1-8.
6. qizi Mamadjonova, S. T. (2023). ZAMONAVIY O'ZBEK MINIATYURASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(1 SPECIAL), 348-352.
7. Байметов, Б., & Шарипжонов, М. (2020). ОЛИЙ ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМДА ТАЛАБАЛАР ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИ

ШАКЛЛАНТИРИШДА ИНДИВИДУАЛ ТАЪЛИМ БЕРИШ МЕТОДИКАСИ (ҚАЛАМТАСВИР МИСОЛИДА). *Academic research in educational sciences*, (4), 357-363.

8. Amanullaev, A.A. (2022). BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDAGI HOZIRGI MASALALAR. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11 (03), 1-3.

9. Amanullaev, A. (2022). SPECIFIC FACTORS OF COMPREHENSIVE STUDY AND ANALYSIS OF THE HISTORY AND CULTURE OF THE UZBEK PEOPLE. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(02), 1-4.

10. Muhammad, A. (2022). MANZARA JANRIDA TARKIBI VA RANGNING ALOQASINI ILMIY O‘RGANISHNING XUSUSIYATLARI. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11 (02), 5-8.

11. Abdumo‘Minova, D. A. Q. (2022). Talabalarga tasviriy san’atdan mashg‘ulotlarni tashkil etishda qalamtasvirning nazariy qonunlardan foydalanish. *Science and Education*, 3(9), 467-473.

12. В Ruzinov - Science and Innovation, INTERDISCIPLINARY LINKS IN RESEARCH ON CULTURAL HERITAGE SITES AND ITS IMPACT ON THE YOUNGER GENERATION, 2022, 1(3), 167-172

13. Рузинов, Б. А., Қодиралиевич, Қ. Т., & Адилов, З. Р. (2023). Farg‘ona shaharlari yozma manbalari. *TADQIQOTLAR jahon ilmiy–metodik jurnali*.

14. Шарипжонов, М. Ш. (2020). Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчисининг касбий маҳоратларини такомиллаштиришда амалий машғулотларни ташкил этиш методикаси. *Молодой ученый*, (43), 351-353.

15. Pulatov, D., & Ubaydullaev, M. (2023). FORMATION OF NEW CREATIVE DIRECTIONS IN MODERN FINE ART OF UZBEKISTAN. Solution of social problems in management and economy, 2(2), 34-39.

16. Umarov, X. (2023). THE ROLE OF THE TYPE OF APPLIED ART IN ARCHITECTURAL MONUMENTS (ON THE EXAMPLE OF THE HOJAAMIN GRAVE COMPLEX). *Евразийский журнал академических исследований*, 3(3), 182-187.